

BEMORLARNI TEKSHIRISHDA DIAGNOSTIK AXAMIYAT

Muhammadjonov Sarvarbek G'ayratjon o'g'li

FJSTI, Biotibbiyot muhandisligi 1622-guruh talabasi

Mamasharipov Xasanboy Erkinjon o'g'li

FJSTI, Davolsh ishi 7-guruh talabasi

***Annotatsiya:** Tibbiyot xodimlarini Diagnostik test kasalliklarni erta aniqlash va davolashda yordam berish orqali zamonaviy sog'liqni saqlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Diagnostik testlar sog'liqni saqlash mutaxassislariga bemorning sog'lig'i haqida qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi, bu o'z vaqtida aralashish va shaxsiy davolash rejalarini amalga oshirishga imkon beradi.*

***Kalit so'zlar:** Biopsiya, Funktsional kasalliklar, Diagnostika, Bemorni tekshirish.*

Kelgan bemorni tekshirishda, avvalo, uning sezgilari, kasalligi qachon boshlangan va qanday o'tgani, mehnat va turmush sharoiti yo o'zidan, yoki yaqin kishilaridan (go'dak bolani tekshirishda onasidan) so'rab olinadi, ya'ni anamnez to'planadi. Anamnez to'plash va bemorning kasallik tarixini to'g'ri bayon qilib berish tashhis uchun g'oyat katta ahamiyatga ega.

Bemor tekshirishda bemor ko'zdan kechiriladi va palpatsiya, perkussiya, auskultatsiya metodlari qo'llaniladi. Nerv sistemasi va sezgi a'zolarini tekshirishda reflekslar, sezuvchanlikning har xil turlari, ko'ruv va eshituv, ta'm va hid biluv o'tkirligini aniklash uchun maxsus usullar tatbiq etiladi. Oliy nerv faoliyatini o'rganish Diagnostikaning muhim vazifalaridandir. Bundan tashqari, gavda temperaturasi va qismlari o'lchanadi (termometriya va antropometriya), ichkariroqda joylashgan a'zolari tekshirishda har xil ko'zgular (quloq, burun, hiqildoq, qin ko'zgulari) va optik asboblardan (ko'zni tekshirishda — oftalmoskop, qizilo'ngachni ko'rishda — ezofagofibroskop, me'da-ichak tekshirishda — gastroduodenofibroskop, kolonoskopdan) foydalaniladi. Yurak va tomir harakatlarini qog'ozga yoki foto-plyonkaga yozib olish (kardiografiya va sfigmografiya)ning ahamiyati katta. Yurak va miyadagi elektr potentsiallarining o'zgarishlarini qayd qilish (elektrokardiografiya va elektroensefalografiya) ayniqsa kimmatli usuldir. 20-asr oxirida ichki a'zolar kasalliklari Diagnostikasida ultratovush texnikasi, magnit rezonans apparati, kompyuter tomografiya usullari keng qo'llanila boshladi. Ba'zi kasalliklarni

aniqlashda radioaktiv izotoplar tatbiq etiladi. Bunda nafas olish, qon aylanish, ajratish a'zolari va endokrin sistemalar holati, shuningdek, moddalar alma-shinuvining buzilishi aniqlanadi. Labbaratoriyada qon, siydik, axlat, balg'am, shuningdek, ko'mik, jigar, taloq, limfa tugunlarini punksiya qilib olingan materiallar mikroskopik, fizik va kimyoviy tekshirishdan o'tkaziladi ([Biopsiya](#)). Kasallikni qo'zg'atgan mikroblar va immunitetnk aniklash maqsadida o'tkaziladigan bakteriologik, immunologik va serologik metodlar Diagnostika uchun katta ahamiyatga ega. Hozir radiotelemetrik Diagnostika. usuli (biror ko'rsatkichni masofadan o'lchash) ishlab chiqilgan. Ayrim hollarda kasallik simptomlari kam, chalkash bo'lishi yoki tipik bo'lmasligi mumkin. Bunday hollarda differensial Diagnostika. usuli qo'llaniladi: vrach bemorda topilgan simptomlarni taxmin qilinayotgan kasalliklarga mos kelish-kelmasligini mukammal tahlil qilib, taxmin qili-nayotgan kasalliklarni hisobdan chiqara boradi va shu yo'l bilan muayyan xulosaga kelgach, kasallikka tashhis qo'yadi.

Funksional kasalliklar Diagnostikasida tashhis qo'yishda asosiy va yo'ldosh kasalliklar hamda asoratlar sabablari aniklanadi, sistema va a'zolar faoliyatining buzilish darajasi belgilanadi, tekshirilayotgan bemorning shunday kasallik bilan og'rigan boshqa bemordan farq qiladigan fiziologik xususiyatlari hisobga olinadi. Patologik-anatomik Diagnostikada bemor vafot etganidan keyin uni yorib olingan ma'lumotlar va to'qimalar biontatini taxlil qilish asosida tashhis qo'yiladi. Diagnostikani takomillashtirishda telekommunikatsiya, internet va elektron aloqalardan foydalanish mumkin.

XULOSA

Diagnostik sinov uskunolari kasalliklarni erta aniqlash va davolashda muhim ro'l o'ynaydi. Laboratoriya sinovlaridan tortib tasvirlash texnologiyalari, parvarishlash punktlari va molekulyar sinovlargacha ushbu vositalar sog'liqni saqlash mutaxassislariga aniq tashxis qo'yish va shaxsiy davolanish uchun bebaho ma'lumotlarni taqdim etadi. Kasalliklarni dastlabki bosqichlarida aniqlash orqali diagnostika sinov uskunolari sog'liqni saqlash mutaxassislariga zudlik bilan aralashish, bemorlarning natijalarini yaxshilash va umuman sog'lom aholiga hissa qo'shish imkoniyatini beradi. Texnologiya rivojlanishda davom etar ekan, diagnostika sinovlari sog'liqni saqlash kelajagini shakllantirishda tobora muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aliyev N., Muhammadjonov S. THE ROLE OF MATHEMATICS EDUCATION IN THE PROFESSIONAL TRAINING OF MEDICAL WORKERS. THE IMPORTANCE OF MATHEMATICS FOR A HEALTH WORKER. MATHEMATICAL METHODS AND STATISTICS IN MEDICINE //Бюллетень педагогов нового Узбекистана. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 39-42.
2. Nurillo N. A., Muhammadjonov S., Tojimatova L. THE ROLE OF MATHEMATICS EDUCATION IN THE PROFESSIONAL TRAINING OF MEDICAL PERSONNEL. THE IMPORTANCE OF MATHEMATICS FOR THE HEALTH WORKER //International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research. – 2023. – Т. 3. – №. 6. – С. 54-56.
3. Melibayeva, F. M., Aliyev, N. A., & Muhammadjonov, S. G. o'g'li. (2023). CHEKISH BILAN BOG'LIQ O'PKA KASALIKLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(16), 719–723
4. AN Abdiqayumovich, M Sarvarbek Gayratjon o'g'li. ZAMONAVIY DIAGNOSTIKANING ROLI. ZAMONAVIY DIAGNOSTIKA USULLARI. Лучшие интеллектуальные исследования 10 (6), 177-180.
5. N.Madrahimova. Scientific bases of methods for studying anthropometry of the eye bowl. Science and Innovation, Volume 1, Issue 8, pp. 1001-1006, 2022.
6. 7-18 ёшли болаларнинг кўз косаси антропометриясини ўрганиш. Ю.Н.Нишонов., А.Р.Абдулхакимов., Н.Р.Мадрахимова. Scientific impulse 1(5), 910-913, 2022
7. Madraximova N.R. (2023). INTERCORRELATION OF THE SIZE OF THE EYE SLIT AND THE ANTHROPOMETRIC PARAMETERS OF THE ORGANISM. World Bulletin of Public Health, 29, 27-29
8. Odilov, X., Mirzajonova, S., & Rustamov, A. (2023). ATEROSKLEROZ TIBBIYOTDAGI DOLZARB MUAMMO VA UNGA AMALIY TAVSIYALAR. Engineering Problems and Innovations
9. Одилов, Х., Эминов, Р., & Одилов, Ж. (2023). БОЛАЛАРДА БУЙРАКЛАР ИККИ ТОМОНЛАМА СИЙДИК ТОШ КАСАЛЛИГИ ДАВОЛАШ ТАКТИКАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. Engineering Problems and Innovations